

## TIBBIYOT MUASSASASINING YANGI BINOSI FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI

Prezidentimiz tomonidan aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatning sifati samaradorligi va ommabopligrini oshirishga qaratilgan yuzdan ortiq farmon va qarorlar qabul qilindi va ular hayotga tatbiq etilmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda tibbiyot sohasiga, ayniqsa aholiga sifatli tibbiy hizmat ko'rsatish yo'nalishida ko'rileyotgan chora-tadbirlar natijasida bir qator amaliy ishlari qilinmoqda. Tuman tibbiyot bo'limiga qarashli tug'ruq kompleksi ta'mortalab ahvolga kelib qolgan edi. Bu esa o'z navbatida tuman aholisining haqli e'tirozlariga sabab bo'layotgan edi.

Butunlay yangi qiyofa kasb etgan shifoxona binosida qariyb 300 million so'mlik qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirilib, zamonaviy ko'rinishga keldi. Bunyodkorlik ishlari evaziga ana shunday ko'rkm maskanga aylangan bino bugun tantanali tarzda foydalanishga topshirildi.

Binoning ochilish marosimida Rishton tumani hokimi Bahodirjon Xoliquov, sektor rahbarlari ishtirok etishib, tumanimiz aholisi uchun yana bir qulaylik yaratilayotganligi ta'kidlashdi. Shundan so'ng ramziy lenta qirqilib, shifoxona rasman faoliyatini boshladi.

### **Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati.**

2025-02-05 15:22:40